

O‘ZBEK QO‘SHIQCHILIGIDA DOIRA RITMLARI VA QO‘SHIQ IJROCHILIGINING O‘ZIGA XOS USLUBLARI.

Nurbek Tojiqulov,

Musiqqa ta’limi yo’nalishi 4-kurs talabasi.

Ilmiy raxbar - **Maxammatov Abdumannon.**

Annatsiya: Ushbu maqolada talabalarga ta’lim berish jarayonida o‘zbek qo‘shiqchiligida doira ritmlari va qo‘shiq ijrochiligining o‘ziga xos ijro uslublarning yo‘l-yo‘riqlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbek qo‘shiqchiligi, doira, ritm, ta’lim, tarbiya, mumtoz ashulla, estrada, xonanda, murabbiy, Farg‘ona-Toshkent, Samarqand-Buxoro, Xorazm, mumtoz musiqqa, o‘zbek milliy qo‘shiqchiligi, qo‘shiq, usul.

Bizga ma’lumki, doira usullarining xilma-xilligi va murakkabligi jihatidan o‘zbek musiqqa merosi jahonda yetakchi o‘rinlardan birida turadi. Doira usullarimizning turlari saksondan ortiqdir. Jahondagi ayrim xalqlar musiqalari aksariyat bir xil ritmda ijro etilishi, ulardagi ritmlar xilma-xilligi 10-15 dan oshmasligini e’tiborga olsak, o‘zbek musiqasi rang-barangligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Ba’zida bir musiqiy asarni (u kuy yoki qo‘shiq bo‘lishi mumkin) bir necha xil doira usulida ijro etish imkoniyati mavjud bo‘ladi. Masalan: o‘zbek mumtoz ashullalaridan “Beboqcha”, “Qalandar I-II” va boshqalar o‘zining asl doira usulidan boshqa ritmgaga o‘zgartirilib ijro etilganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Shuni aytish kerakki keyingi davrda o‘zbek qo‘shiqlarining ko‘pchiligi zamonaviy estrada cholg‘ulari yordamida kuylanmoqda. Bu esa ayrim qo‘shiqlarga o‘zgacha jilo berib, uni yoshartirib tinglovchilarga yetkazilishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa musiqqa madaniyatimiz rivojida olg‘a siljish hisoblanadi. Lekin afsuski, barcha qo‘shiq va ashullalarimiz ham estrada yo‘lida o‘zining dastlabki jozibasini beravermaydi. Masalan: estrada xonandasi Larisa Maskalyova ijrosidagi estrada uslubida ijro etilgan “Soqinomai savti kalon”, “Qari navo” asarlari o‘zining jozibasini butkul yo‘qotib qo‘ygan. Tomoshabinlar rus millatiga mansub xonandaning o‘zbek qo‘shiqlarini kuylashiga ajablangan holda uni olqishlashlari bu boshqa narsa.

Biz pedagog-murabbiylar o'quvchi yoshlarga milliy qo'shiqchiligimiz xazinasidagi mumtoz asarlarni o'zining asl jilosi va jozibasi qanday bo'lishini, ularni ijro etish xonanda va xofizlardan qanday mas'uliyat talab qilishini o'rgata olishimiz, tushuntira olishimiz zarur.

“Yaxshi xonanda yoki xofiz yaxshi doirachidan chiqadi”- degan naql bor. Bu naql bejiz aytilmagan. Ustoz ko'rmagan qo'shiq o'rganuvchi qo'shiqni musiqa ijrosining qaysi joyidan boshlash, bo'g'inlar talaffuzi doira usulining qaysi joyiga to'g'ri kelishi lozimligi yoki doira usulining qaysi joyidan nafas olish lozimligini bilmasligi natijasida ular ijrosida pala-partishlik ro'y beradi. Doira usuli-bu ritm, bu xisob-kitob demakdir. Shunday ekan pala-partish etilgan ijro bu xisob-kitoblar, ya'ni o'lchovlarga rioya qilinmasligiga sabab bo'ladi. Yuqorida aytib o'tganimizdek o'zbek milliy qo'shiqchilik san'ati nihoyatda doira usuliga boy bo'lib, ular orasidagi ayrim usullar o'ta murakkabdir. Shunday ekan, bu murakkab usullarni shaxsan doirada ijro etib ko'rmagan yoki ularni to'lig'icha xis qilmagan xonandalar murakkab asarlarni ijro etishga qodir bo'lmaydi.

Bunday murakkab formali, murakkab ritmik tuzilishiga ega bo'lgan asarlar asrlar davomida yuksak iqtidorli musiqachi va xofizlarimiz tomonidan yaratilgan va ijro etilgan. Bunday asarlarni ustozlar darajasida ijro etishni o'rgatish uchun pedagog-murabbiyning ham yuksak ijrochilik salohiyatiga ega bo'lishi talab qilinadi. Chunki, o'zi yaxshi ijro etolmagan murabbiy, ustoz o'quvchisiga o'zini bilimi darajasidagina o'rgatishga qodir. Shuningdek o'zi doira usullarini xis qilmagan, ijrosida unga rioya qilmaydigan murabbiyning o'quvchisi ham ritmni idrok qilmaydi.

Yana shuni aytish kerakki, qo'shiq ijrosi jarayonida doira usuli bir xil takrorlanmasligi, bir xil takrorlanish esa shu qo'shiqning zerikarli bo'lishiga sabab bo'lishi ijrochi va tinglovchilarga ayon bo'lishi kerak. Shuning uchun doirada usul beruvchi musiqachi qo'shiq o'lchovi yoki ritmidan chiqib ketmagan holda turli qochirimlar berishi, qo'shiq ijro etuvchini ruhlantirishi, ilxomlantirishi kundalik musiqa amaliyotidan bizga ma'lum.

Aytish lozimki, bunday qochirimlarni duch kelgan joyda yoki xohlagan vaqtda emas, balki aksariyat musiqiy jumlar orasidagi bo'shliqni to'ldirish, ya'ni qo'shiq ijrosidagi ma'lum bir qator, yoki misra tugashi va keyingi qatorning boshlanishidan oldin berish tinglovchini qo'shiq ijrosidagi mazmunni idrok etishdan chalg'itmaydi. Mohir sozandalar esa buni yaxshi biladilar va ijro jarayonida shunga amal qiladilar.

O'zbek milliy qo'shiqchiligi, ayniqsa maqomlarimiz orasida bir necha xil o'lchovlarda yozilgan, yoki ijro davomida o'lchovlarning o'zgarib turishi ko'plab uchraydi. Bunday o'lchovlarning o'zgarishi tabiiyki, doira usullari ijrosiga, shuningdek qo'shiq ijrosiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Shuning uchun doirada usul beruvchi musiqachi qo'shiq ijrochiligidan ham xabardor bo'lishi, ya'ni u ham ovoz chiqarmasdan g'oyibona qo'shiqchi bilan birga ichida kuylashi uning doira usullarini to'g'ri belgilashi va ijro etishiga sabab bo'ladi. Masalan: "Subhidam", "Hanuz", "Topmadim", "O'zbekistonda" kabi mumtoz ashulalar katta ashula uslubida bo'lib, asosan tremola bilan ijro etiladi va vaqti-vaqti bilan doira usuliga o'tiladi. Tajribasiz doirada usul beruvchi esa buni anglab yetishi qiyin.

Katta ashula-nisbatan diapazoni keng bo'lib, g'azallarga bastalanadi va aksariyat hollarda jo'rsiz, ya'ni cholg'u sozlari jo'rlogisiz erkin ravishda ijro etiladi. Bu degani katta ashulada ritm yo'q degani emas, balki ijrochi xofizlar uni dildan idrok qiladilar va ijro jarayonida bu ritmga amal qiladilar.

Bundan tashqari o'zbek qo'shiqchiligida temp o'zgarishlari ham mavjudki, bu ayniqsa Xorazm qo'shiqchiligida yaqqol ko'zga tashlanadi. Xorazm mumtoz ashulalaridan Feruz-I-II-III, turli ko'rinishdagi suvoralar (ular 11 xildan ortiq), Xorazm dugohi, segohi, chorgohi, nasrulloysi va boshqalarda xatto, to'xtab qolish darajasigacha bo'lgan sekinlashishlarni kuzatishimiz mumkin. Ansambli ijrochiligidagi doira cholg'usining yetakchilik rolini xisobga olsak, doirada usul beruvchilar bu asarlarni yaxshi bilishi, idrok etishini xis qilishimiz mumkin.

Shuni aytish kerakki, doira usullari ijrosida ham mahalliy uslublar mavjud bo'lib, Farg'ona-Toshkent, Samarqand-Buxoro, Xorazm doira ijro etish usublari bir-biridan farq qiladi. Buni tinglovchilar tezda anglab yetadilar. Buxorocha

Mavrigilar xatto 3-4 xil doira usulida ijro etilishi, uni ijro etish xonandadan ham, sozandadan ham, ayniqsa doirakash sozandadan yuqori bilim va iqtidor talab qilishi amalda o'z isbotini topgan.

Qo'shiq ijro etish professional va havaskorlik kabi yo'nalishlarda qadimdan rivojlanib kelgan. Xonliklar va podsholiklar saroyida yuksak iqtidorli musiqachilar, xofizlar, raqqosalar, so'z ustalari to'planishgan va o'zlariga san'atning bu sohalarini kasb qilib olganlar. Bunday san'atkorlar saroydagi turli marosim va tadbirlarda ishtirok etib o'z san'atlarini namoyish etganlar hamda munosib taqdirlanganlar, rag'batlantirilganlar. Saroydagi bunday qulaylik va imtiyozlardan mahrum bo'lmaslik uchun ular o'z ustida tinmay ishlaganlar, izlanganlar. Chunki ular saroyda o'tkaziladigan tadbirlarda bir xil repertuarni ijro etish samara bermasligini yaxshi bilganlar va repertuarlarini boyitish ustida tinmay ishlaganlar. Bu esa professional musiqa san'ati bo'lib, uning xosilasi sifatida saroylarda maqomlar shakllangan.

Xavaskorlik musiqa san'ati esa umumxalq orasida shaharlardagi hunarmandchilik mavzellarida, joylardagi zadagonlar qaramog'ida rivojlangan bo'lib, ular asosan ommaviy bayramlar, to'y-tantanalarda o'z san'atlarini namoyish qilganlar. Havaskorlik san'atining eng iqtidorli vakillari saroy professional musiqachilarining safini doimo to'ldirib turganlar.

O'zbek milliy qo'shiqchilik madaniyati mana shu tarzda asrlar osha shakllanib keldi va uning xazinasini turli-tuman janrlardagi musiqiy asarlar bilan naqadar boyidi. Endilikda bu boy musiqa merosimiz durdonalari bilan yosh avlodni tanishtirish, bolalarga bu asarlarni o'z imkoniyatlari darajasida o'rgatish bu xazinaning avlodlar osha saqlanib qolishi va boyib borishiga erishish pedagog-murabbiylar oldidagi muqaddas burch xisoblanadi.

Qo'shiq o'rganish, avvalo, bolalar ovozi tonga tushirilishi, ya'ni qo'shiq tonalligida mavjud bo'lgan kerakli tovushni bolalar o'z ovozlari topa olishiga erishishdan boshlanadi. Buning uchun ijro etilayotgan cholg'u sozining torlari soz bo'lishi va bolalarning tovushlarni eshitish, tahlil qilish hamda o'z ovozlari shu tovushga to'g'rilash qobiliyatlariga salbiy ta'sir etmasligi zarur. Bolalar ovozi

tonga tushirish uchun gamma va ovoz sozlash mashqlarini ko'plab kuylash, eng asosiysi o'qituvchi o'z ovozi bilan bu mashqlarni kuylab o'quvchiga ibrat bo'lishi zarur. Agar bolalar ovozi mana shu sa'y harakatlardan so'ng ham tonga tushmasa yoki ayrim tovushlarni kuylashda tonga tushmaslik sodir bo'lsa o'qituvchi o'zining falset ovozi bilan bolalar ovozi balandligida kuylab, namuna ko'rsatishi kerak bo'ladi.

O'qituvchi qo'shiq o'rgatish jarayonida o'rgatilayotgan qo'shiq matnining to'g'ri talaffuz etilishiga, matn mazmunining ochiq-oydin ifodalanishiga, milliy ohanglar, milliy qochirim va melizm bezaklarining joy-joyida va mohirona ijro etilishiga, shuningdek, doira usullariga qat'iy amal qilinishiga, bundan tashqari qo'shiq dinamikasi, tezligi va boshqa ifodaviy xususiyatlariga e'tibor qaratishi lozim.

Shuni yodda saqlash kerakki, o'quvchi ovoz muskullarini qizdirmasdan turib baland avjga chiqmaslik lozim. Aksincha qo'shiqning pastki pardalardan kuylanadigan qismini qayta-qayta takrorlash yoki avval o'rganilgan qo'shiqlarning kichik diapazonlaridan bir nechtasini kuylatish orqali ovoz muskullarining qizishiga erishish, so'ngra kengroq diapazonli qo'shiqlarni kuylashga o'tish lozim.

O'rganiladigan qo'shiqlar o'quv yilining birinchi yarimidan ikkinchi yarmiga, sinfdan-sinfga oshgan sayin bolani ijrodagi iqtidoriga ko'ra tanlanishi murakkablashib borishi lozim. Chunki, o'quvchilarda qo'shiq kuylashga bo'lgan qobiliyat, ko'nikma va malaka kundan-kunga, sinfdan- sinfga oshib borishi lozimligini o'qituvchi hamma vaqt diqqat markazida tutishi lozim.

Berilayotgan asarlar murakkablik jihatidan tanlanganda, albatta uning ritmik murakkabligi, ya'ni doira usullarining murakkablik darajasini, so'ngra ashula yoki qo'shiq hajmini, ijrodagi ovoz harakatlari hamda ohanglarga boyligini nazarda tutish kerak.

O'zbek milliy-an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati boy va qadimiy bo'lib, unda turli xajmdagi, turli xarakterdagi va turli murakkablikdagi son-sanoqsiz milliy va vokal asarlar mavjud. Ular orasidan o'quvchilar o'rganishi mumkin

bo'lgan asarlarni saralab olish va o'quvchilarga o'rgatish uchun quyidagi metodik tavsiyalarni berib o'tamiz:

- O'zingiz dars beradigan o'quvchining jinsi, jismonan sog'lomligini aniqlash, ular uchun repertuar tanlashda o'quvchining mana shu jihatlarni e'tiborga olish lozim. Biz qiz bolalar uchun va o'g'il bolalar uchun qo'shiq mazmunining mos kelishi, shuningdek jismoniy yaxshi rivojlanmagan bolalarni, xaddan tashqari uzoq muddat kuylashga va baland pardalarda ovoz xosil qilishga majbur qilmaslik lozim deganidir.
- Qo'shiq tanlashda bolalarning yoshi ulg'ayishi hamda ijro malakalarining oshib borishini nazarda tutib "oddiydan - murakkabga" prinsipiga amal qilgan holda asarlarni tanlash.
- O'rganilayotgan repertuardagi musiqiy asarlar, ya'ni qo'shiq va ashulani o'qituvchi puxta o'zlashtirgan, she'riy matni mazmunini to'liq anglab yetgan, asar xarakteri ifodaviy xususiyati, tezligi, dinamikasi, milliy bezak berish uslublarini to'liq o'zlashtirgan bo'lishi va yoddan ijro eta olishi lozim.
- O'rganilayotgan qo'shiq yoki ashula melodiyasini milliy cholg'u sozlaridan birida mohirona chalishi va kuylashi, bu asarlar xarakterini o'qituvchilar tushunib olishlari uchun asarni bir necha marta ijro etib ko'rsata olishi kerak.
- Berilayotgan musiqiy asarlar o'lchovi, ritmi va doira usullarini to'g'ri belgilashi, o'z ijrosida unga amal qilishi hamda o'quvchiga ham uni to'g'ri tushuntira olishi zarur.
- O'z o'quvchisiga qadim ustoz-shogird an'analariiga amal qilgan holda xurmat bilan munosabatda bo'lishi, o'quvchi shaxsining kamsitilishiga yo'l qo'ymasligi, o'z bilim va malakalarini o'quvchilarga berishda erinchoqlik, o'zibo'larchilikka yo'l qo'ymaslik lozim.
- O'quvchining har bir erishgan yutug'ini vaqtida ko'rsatib, uni rag'batlantirib turishi, yo'l qo'yilgan kamchiliklari uchun qattiq dashnom

bermaslik, aksincha yumshoqlik va chiroyli iboralar bilan bu xato-kamchiliklarni ko'rsatishi, mutlaqo jahlgga erk bermasligi kerak.

- Yaxshi ijro etgan o'quvchilarni boshqalarga ibrat qilib ko'rsatish, qolgan o'quvchilarni ham yaxshi ijro eta olishlariga ishonirish, vaqti-vaqti bilan ular ijrosida konsertlar tashkil qilish, o'quvchilarni sahnada o'zini tutishga o'rgatish zarur.
- Ota-onalar bilan bog'lanib, o'quvchilarning o'qish jarayonida va milliy qo'shiqlarni o'rganish borasida erishayotgan yutuqlaridan ularni xabardor qilib turish, ota-onalar xuzurida o'quvchilar ijrosida konsertlar tashkil qilish kerak.
- O'quvchilarni o'z sohalari bo'yicha tuman, shahar, viloyat va respublika ko'rik-tanlovlarida qatnashishi va g'olib bo'lishlari uchun qo'shimcha ravishda shug'ullanish, mashg'ulotlar va konsertlar o'tkazishi kerak.
- O'qituvchi ustoz sifatida o'z shogirdi bo'lgan o'quvchiga har tomonlama ibrat bo'lishi uchun o'z kasbini a'lo darajada o'zlashtirishi, o'z bilim darajasini oshirib borish uchun muntazam shug'ullanishi, o'quvchilarga imkon qadar ko'proq bilim berishga intilishi kerak.
- Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, axborot texnologiyalari, interfaol dars o'tish uslublaridan dars jarayonida keng foydalana olish, o'rgatilgan musiqiy asarlari fonotekasini tashkil qilishi, mohir xonanda va xofizlar tomonidan ijro etilayotgan milliy qo'shiq va ashulalarni o'quvchilarga tez-tez tinglatib turish.
- Cholg'u sozlarini mahorat bilan chalish uchun muntazam uni ijro etish, doimo ularni soz xolatda saqlash mashg'ulotlarini muntazam va o'z vaqtida o'tishi, mashg'ulotlarda o'zlashtirilgan bilimni sarhisob qilish, kelgusi mashg'ulotda o'rganilishi lozim bo'lgan bilimni rejalashtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O.Fayziev. O'quvchilar da musiqiy nafosat tarbiyasini shaqllantirish yo'llari. Toshkent 1992 yil.

2.N.G.Dmitrieva. O. Chersivanenko. Metodika muzikalnogo vospitaniya v shkola. Moskva. 1990 goda.

3.A.Mansurov, D. Karimova. “ 5-sinf musiqa darsligi”. Toshkent 2004 yil.